

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tomonidan  
2026-yilda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish”da  
Respublika davlat dasturida belgilangan vazifalarning ijrosi to‘g‘risida  
MA’LUMOT**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”da ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston-2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-22-sonli Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining 2026-yil 23-fevraldagi **142-sonli buyrug‘i** tasdiqlandi.

Ushbu buyruq bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturi **33 ta** banddan iborat bo‘lib, uni amalga oshirish uchun “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tomonidan “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”da **41 390,0 mln. so‘m** va **319,8 mln. AQSh dollar** mablag‘lar sarflanishi ko‘zda tutilgan va barcha bandlar ijrosi alohida nazoratga olingan.

Ma‘lumot o‘rnida aytish joizki, Respublika davlat dasturidan “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatiga taalluqli **uchta band** o‘rin olgan bo‘lib, joriy yilning o‘tgan 1-choragida Respublika davlat dasturida ko‘zda tutilgan tegishli bandlar ijrosi bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- Farmonning 5-ilovasi 8-bandi, ya‘ni, “Korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiya holatlarining oldini olish bo‘yicha yangi tizim joriy etish” bo‘yicha berilgan topshiriq ayni paytda ish jarayonida ko‘rib chiqilmoqda.

- Farmonning 6-ilovasi 118-bandi, ya‘ni, “Qoqpatas” va “Dovg‘iztov” oltin konlarida ma‘dan qazib olish (III-navbati)” investitsiya loyhasini amalga oshirish bo‘yicha berilgan topshiriq ijrosi doirasida o‘tgan chorakda 18,50 mln. AQSh dollarlik mablag‘lar o‘zlashtirilib, belgilangan reja 102,8 foizga bajarildi.

- Farmonning 6-ilovasi 157-bandi, ya‘ni, “Aviasiya infratuzilmalarini rivojlantirish” bo‘yicha berilgan topshiriq ijrosi ayni paytda jarayonda bo‘lib, ishlar olib borilmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tomonidan respublika dasturida ko‘zda tutilgan bandlar va NKMK dasturida belgilangan barcha bandlar ijrosi o‘z vaqtida, so‘zsiz va sifatli ta‘minlanadi.

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ  
Davlat dasturini amalga oshirish bo‘yicha komissiyasi.**